



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA  
VA MAKTAB  
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston  
Milliy Pedagogika  
Universiteti



№4(2)  
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

# M

# AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 520 sahifa,  
13-aprel, 2026-yil.

## **BOSH MUHARRIR:**

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

## **BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:**

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

## **TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI**

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik  
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik  
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor  
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor  
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)  
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)  
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)  
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)  
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)  
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)  
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent  
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor  
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor  
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (PhD)  
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent  
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti  
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor  
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)  
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent  
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori  
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari  
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

**Muassis:** “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

**Hamkorlarimiz:** O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

#### **EDITOR-IN-CHIEF:**

**Karimova E'zoza Gapirzhanovna** – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

#### **DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:**

**Ibragimova Gulsanam Ne'matovna** – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

#### **EDITORIAL BOARD MEMBERS:**

**Ibragimov X.I.** – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

**Shoumarov G. B.** – Doctor of Psychological Sciences, Academician

**Qirg'izboyev A. K.** – Doctor of Historical Sciences, Professor

**Jamoldinova O.R.** – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

**Sharipov Sh.S.** – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

**Shermuhhammadov B.Sh.** – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

**Ma'murov B.B.** – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

**Madraximova F.R.** – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

**Kalonov M.B.** – Doctor of Economic Sciences, Professor

**Nabiyev D.X.** – Doctor of Economic Sciences, Professor

**Koldoshev K. M.** – Doctor of Economic Sciences, Professor

**Ikramxanova F.I.** – Doctor of Philological Sciences, Professor

**Ismagilova F.S.** – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

**Stoyuxina N.Yu.** – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

**Magauova A.S.** – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

**Rejep O'zyurek** – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

**Wookyu Cha** – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

**Polonnikov A.A.** – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

**Mizayeva F. O.** – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

**Baybayeva M.X.** – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

**Muxsiyeva A.T.** – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

**Aliyev B.** – Doctor of philosophy, professor

**Abdullayeva N. Sh.** – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

**Doniyorov S. M.** – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

**Gafurov D. O.** – Doctor of Philosophy (PhD)

**Shomurodov R.T.** – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

**Mirzayeva F. O.** – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

**Jalilova S.X.** – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

**Bafayev M.M.** – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

**Usmonova D.I.** – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

**Saifnazarov I.** – Doctor of philosophy, professor

**Nematov Sh.E.** – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

**Tillashayxova X.A.** – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

**Yuldasheva F.I.** – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

**Yuldasheva D.B.** – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

**Tangriyev A.T.** – is a professor of Tashkent State University of Economics

**Ashurov R. R.** – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

**Panjiyev M. A.** – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

**Khudaiberganov N. A.** – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

**Vakhobov Anvar Abdusattor oglu** – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”  
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti  
Administratsiyasi huzuridagi Axborot  
va ommaviy kommunikatsiyalar  
agentligi tomonidan **№C-5669363**  
reyestr raqami tartibi bo'yicha  
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

# MUNDARIJA

Alohida ehtiyojga muhtoj bolalarga matematika darslarida integratsion yondashuvni amalga oshirish .....	10
<i>Mamadjanova Ma'muraxon Kadirjanovna</i>	
O'quvchilarda raqamli madaniyatni shakllantirishning nazariy asoslari.....	13
<i>Boltayeva Go'zal Komilovna</i>	
Inkluziv ta'lim sharoitida o'qituvchilarning metodik tayyorgarligini aniqlash metodologiyasi .....	21
<i>D. Sh. Jo'rayeva, J. A. Jovliyev</i>	
Bolalarda leksik-grammatik nutq kamchiliklarini bartaraf etishda kontekstli texnologiyalardan foydalanish .....	25
<i>Abdullayeva Yoqutjon Qalandar qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining kognitiv qobiliyatlarini rivojlantirish metodikasi .....	30
<i>Abduvaliyeva Sabina Kurbonali qizi</i>	
O'g'il bolalarni oilaviy munosabatlarga tayyorlashning pedagogik-psixologik asoslari.....	35
<i>Aripov Shokirjon Olimovich, Raxmatillayeva Sug'diyona Muhammadjon qizi</i>	
Pedagogik intuitsiyani rivojlantirishga yo'naltirilgan zamonaviy metodikalar .....	39
<i>Axmedov Jaloliddin Oribovich</i>	
The Impact of AI-Generated English Learning Materials Based on Uzbek Rural Life on the Learning Motivation of Rural Students.....	42
<i>Baxramova Malika Muzaffarovna</i>	
Raqamli kutubxonalarda sun'iy intellekt imkoniyatlaridan foydalanish texnologiyalari va imkoniyatlari .....	47
<i>Choriyeva Zarina Anvarbek qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida orfografik savodxonlikni shakllantirishning nazariy-pedagogik asoslari ...	50
<i>D. Teshaboyev, M. Sotvoldiyeva</i>	
Oliy ta'limda tblt metodik modeli asosida baholash tizimini takomillashtirish .....	53
<i>Djurayeva Nargiza Kudratillayevna</i>	
Yangi O'zbekiston ta'lim tizimida pedagogik etikaning rivojida xorijiy mamlakatlar tajribasi.....	59
<i>Dushayeva Nazokat Sharofiddinovna</i>	
Uilyam Shekspir tragediyalarining o'zbek adabiyotidagi o'rni.....	62
<i>Ergasheva Mehriyona</i>	
Qizlarning oilaviy kompetensiyasi uchun ijodiy pedagogika: Koreya dizayn ta'limi modelini O'zbekiston kontekstiga moslash.....	65
<i>G'ayratova Mohidil Zafar qizi</i>	
Jismoniy tarbiya darslarida va darsdan tashqari mashg'ulotlarda umumrivojlantiruvchi mashqlardan foydalanish metodikasi .....	69
<i>Maksetova Nurjamal Kuatovna</i>	
Integrativ ta'lim muhitida bo'lajak surdopedagoglarning metodik kompetensiyalarini shakllantirish .....	72
<i>Malikova Xurshida Ikramovna</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarda ko'p uchraydigan tovush talaffuzi kamchiliklari va ularni bartaraf etishda lopedik usullar.....	75
<i>Moxirabonu G'aniyeva Adxam qizi</i>	
Talabalarga an'anaviy xonandalik ijrochiligini o'rgatishning pedagogik yondashuvlari.....	78
<i>Muxammadova Ozoda Muzrabovna</i>	
Hayotiy sifat tushunchasini psixologik mazmuni.....	82
<i>N. G. Pulatova</i>	
Inklyuziv ta'lim sharoitida alohida ehtiyojlarga ega o'quvchilarni qo'llab-quvvatlashning kompleks yondashuvlari .....	85
<i>Nazarova Dildora Asatovna, Abdurashidova Feruza Qaxramonovna</i>	
Inklyuziv ta'lim tizimida o'qituvchining ko'p qirrali pedagogik faoliyati va uning nazariy asoslari .....	89
<i>Nazarova Dildora Asatovna, Axmedova Aziza Temurovna</i>	



Xo'ja ahmad Yassaviy e'tiqod tarbiyasi haqida.....	93
<i>Norova Sevara Uyg'un qizi</i>	
Matritsa va uning determinanti mavzusini o'qitish orqali bo'lajak iqtisodchilarning analitik tafakkurini rivojlantirish texnologiyalari.....	97
<i>Nuriddinov Jalolxon Tursunboy o'g'li, Otaboyev Muxsinjon Muqimjonovich</i>	
Odam anatomiyasi darslarida interfaol va multimedia vositalaridan foydalanish yo'llari.....	104
<i>Nurmatov Norqobil Jo'rayevich, Qo'chqorova Moxira Dilmurod qizi, Boxodirova Nilufar Ikrom qizi</i>	
AQSh ta'lim tizimining o'ziga xos jihatlari va bugungi kundagi rivojlanishi.....	110
<i>Orishev Jamshid Bahodirovich</i>	
Boshlang'ich sinf ona tili darslarida nutqiy kompetensiyalarini shakllantirishda xorijiy ta'limi tajribalari.....	116
<i>Pardayeva Gulbahor Jalg'ashovna</i>	
Kreativ ta'lim texnologiyalarining pedagogik mohiyati.....	119
<i>Sariboyev Nurali Abdunazarovich</i>	
Shaxsga yo'naltirilgan ta'limning zamonaviy pedagogik tizimdagi o'rni.....	122
<i>Siddiqov Azamat Muhammadjon o'g'li</i>	
Konstruktiv yondashuv asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarida 4K ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasi.....	126
<i>Sobirova Sarvinoz Quvondiqovna</i>	
Criteria of Scientific Activity Implementation of Physical Culture Education Students.....	133
<i>Sapayev Ruzmat Radjapovich</i>	
O'smir yoshdagi o'quvchilarning ma'naviy ehtiyojlarini shakllantirishning nazariy asoslari.....	136
<i>Tilovova Qizlarxon Ishpulat qizi</i>	
PIRLS tadqiqotida so'rovnomalarning qamrov doirasida maktab muhiti.....	141
<i>To'qliyeva Matluba Boqiyevna</i>	
Onlayn til o'rganish platformalarining esl o'quvchilarining og'zaki nutq ishonchi (speaking confidence) ga ta'siri.....	146
<i>Tojiboyeva Shohistaxon, Omonova Nargiza</i>	
Katta maktabgacha yoshdagi bolalarda dialogik nutqni rivojlantirishda kommunikativ o'yinlarning ahamiyati.....	151
<i>Toshpo'latova Sevinch O'ral qizi</i>	
Maktab o'quvchilarining jismoniy sifatlarini tarbiyalashning samarali uslublari.....	155
<i>Turdiyev Azam Xasanovich</i>	
O'quvchilarda tayanch kompetensiyalarni rivojlantirishda xalqaro baholash tizimini tatbiq etish imkoniyatlari.....	158
<i>Turobov Mamarajab Sodiq o'g'li</i>	
Maktabgacha ta'limda ijodiy va mantiqiy fikrlashni rivojlantirish.....	163
<i>Umirzoqova Surayyo Xudoyberdiyevna</i>	
Talabalarda perspektiv tasvir bajarishga oid ko'nikmani shakllantirishda CAD dasturlaridan amaliy foydalanish imkoniyatlari.....	165
<i>Valiyev A'zamjon Nematovich, Toxirov Sardorbek Muzaffar o'g'li</i>	
Duduqlanishni bartaraf etishda qo'llaniladigan usullar va vositalar.....	173
<i>Xasanova Barnoxon Abdusattor qizi</i>	
Boshlang'ich sinf ona tili darslarida o'quvchilarning yozma nutqini rivojlantirish usullari.....	176
<i>Xudoyberdiyeva Dildora Nazarjon qizi, Mambetova Lobar Mirzavali qizi</i>	
Duduqlanishga ega bolalar nutqini rivojlantirishda kompleks korreksion ishlar tizimi.....	179
<i>Xusanova Nozimaxon Zuxriddin qizi</i>	
Sirdaryo viloyatida tabiat va mehnat jarayonlarining tasviriy san'at orqali estetik va ekologik ifodasi.....	182
<i>Yorlaqova Malika Ahmad qizi</i>	
The Relevance of Artificial Intelligence in Teaching the English Language.....	186
<i>Yusupova Gulnoza Mirzoyevna</i>	
Umumta'lim maktabida boshlang'ich sinf o'quvchilarida kuzatiladigan nutq xususiyatlari.....	189
<i>Zairova Nigora</i>	



Teatr texnologiyalarini maktabgacha ta'limga integratsiya qilishning pedagogik shartlari .....	193
<i>Abdullayeva Aziza Abdurazzoq qizi, Salimova Dilmira Farxodovna</i>	
Педагогические технологии совершенствования физических качеств как основы здорового образа жизни .....	197
<i>Журабаев Абдукарим Маматкулович</i>	
Формирование духовно-нравственной компетентности будущих учителей как педагогическая проблема .....	200
<i>Зокиржонova Ф. Р., Рихситиллаева Д. Р., Меликузиева Ш. А.</i>	
Межкультурный диалог как инструмент воспитания гармоничной личности в школе .....	203
<i>Махмудхожаев Ориф Бахтиёрович</i>	
Talaba yoshlarining ma'naviy madaniyatini rivojlantirishda zamonaviy yondashuvlar .....	205
<i>Xojametov Ajiniyaz Andriyanovich</i>	
Методика формирования познавательных интересов у младших школьников в процессе выполнения творческих заданий на уроках русского языка .....	207
<i>Юлдашева Тахмина Бону Гайратовна</i>	
Raqamli ta'lim texnologiyalari asosida ingliz tili darslarida boshlang'ich sinf o'quvchilarini tinglab tushunishga o'rgatish usullari .....	210
<i>Abdurasulova Guljaxon Nabijon qizi</i>	
Fan va tabiatshunosligi asoslari mashg'ulotlarida tajribalar orqali bolalarning kognitiv qobiliyatlarini rivojlantirish metodikasi .....	215
<i>Abdusamatova Nargiza Jamolidinovna, Xudayberganova Muqaddam Abdurashitovna</i>	
Bakteriofaglar tuzilishi va turlari (T-faglar) va ularning mikrobiekotizimdagi o'rni mavzusini o'qitish metodikasi .....	222
<i>Abdunazarova Zulayxo Sharifqulovna, Xo'janazarov O'ktam Eshtemirovich, Samikova Sevinch Toshtemir qizi</i>	
Bulung'ur doston ijrochiligining musiqiy xususiyatlari va ularni ta'lim jarayonida o'rgatishning pedagogik asoslari .....	227
<i>Babajanov Baxodir Allaberganovich</i>	
Activation of Students' Learning Activities Using Didactic Games .....	230
<i>Daminova Munajat Abduvoxobovna</i>	
Bolalar ensiklopediyasi vositasida tarbiyalanuvchilarning atrof-olam haqidagi tasavvurlarini shakllantirishning metodik shart-sharoitlari .....	234
<i>Davlatova Guljaxon Kamoliddin qizi</i>	
Innovatsion yondashuv asosida talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlash metodikasini takomillashtirish ....	241
<i>Esanova Ro'shana Qurbonazarovna</i>	
Kreativ tafakkurning texnik muammolarni samarali hal qilishdagi o'rni va ahamiyati .....	248
<i>Imanov Baxtiyor Berdiyevich</i>	
Adabiyot va teatr san'ati vositasida maktabgacha yoshdagi bolalarda ijobiy xulq-motivlarni shakllantirishda faollik markazlarining didaktik imkoniyatlari .....	253
<i>Inomova Dilnavoz Muzafar qizi</i>	
Maktabgacha ta'lim muassasalari pedagog xodimlari mehnatini huquqiy tartibga solishning xususiyatlari .....	258
<i>Matekeyeva Bibinaz Mirjan qizi</i>	
Badiiy-estetik qadriyatlar va ularning o'ziga xosliklari .....	264
<i>Ostonova Gulrux Shuxrat qizi</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilariga sharq allomalarining kitobxonlikka munosabatini tarixiy yondashuv asosida o'rgatishning ijtimoiy-tarixiy, zamonaviy va pedagogik xususiyatlari .....	268
<i>Parpibayeva Zulayho Rahimjon qizi</i>	
Al-Xorazmiyning ilmiy merosi vositasida talabalarda analitik tafakkurni rivojlantirishning metodologik asoslari .....	272
<i>Qaxxorova Shaxnoza Abduvasit qizi</i>	
Musiqiy-badiiy did tarbiyasining ilmiy nazariy asoslari .....	276
<i>Rayimova Gavhar Karim qizi</i>	



Maktabgacha yoshdagi bolalarda ijtimoiy-muloqot kompetensiyasini rivojlantirishda interfaol metodlardan foydalanish.....	279
<i>To'laboyeva Iqbolxon Olimjanovna</i>	
Malakaviy amaliyot orqali bo'lajak tarbiyachilarni kasbiy kompetentligini rivojlantiruvchi texnologiyalari....	282
<i>Tohirjonova Hulkaroy Baxodir qizi</i>	
Bolalar musiqa va san'at maktabi o'quvchilariga chang cholg'usida Shashmaqom kuylarini o'rgatishning pedagogik yondashuvlari.....	288
<i>Toshpo'lotova Zulxumor Davlatboy qizi</i>	
Talabalarda axborot madaniyatini shakllantirishning xususiyatlari .....	292
<i>Usmonov Sh. F.</i>	
The Formation of Human Capital In Education: A Pedagogical and Economic Analysis .....	297
<i>Uzoqova Shohida Mirzamurod qizi</i>	
“Птицы во рту” Саманты Швоблин: каннибализм нежности и зооморфный код магического реализма .....	302
<i>Каримов Зиёахмад Алишер угли</i>	
Формирование профессиональных качеств будущих учителей через активизацию учебной деятельности студентов с использованием дидактических игр в педагогических вузах.....	307
<i>Расулова Исмигуль, Якубова Зухра</i>	
Bolalar adabiyotini rivojlantirishda innovatsion yondashuv .....	311
<i>Mirzayeva Nigora Bozorovna</i>	
Issues of Developing Communicative Competence in Future Teachers from the Point of View of an Andragogical Approach.....	314
<i>Nishanova Mastura Khafizovna</i>	
Raqamli va innovatsion ta'lim texnologiyalari vositasida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida adabiy kompetensiyalarni rivojlantirish modeli.....	317
<i>Islomova Xafiza Azamatovna</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarning testologik kompetentligini rivojlantirish muammosining ilmiy-nazariy asoslari .....	324
<i>Nuraliyev Islom Saidaliyevich</i>	
Концепт глаза в русской и узбекской лингвокультуре.....	328
<i>Кодирова Дилдора Абдуназар кизи, Асанов Руслан Арсенович</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ingliz tilida og'zaki nutq kompetensiyasini rivojlantirishda STEAM texnologiyasi asosida mashq tizimini takomillashtirish.....	334
<i>Eshonova Dilnoza Abrorovna</i>	
Boshlang'ich maktabda tabiiy fanlarni o'qitishning integratsiyalashgan dars shakllari va zamonaviy vositalari .....	337
<i>Bekmetova Shoxida Qodirberdiyevna, Nishonxo'jayeva E'zoza Nig'mon qizi</i>	
Zamonaviy ta'lim sharoitida bo'lajak tarbiya fani o'qituvchilarining deontologik kompetensiyasiga qo'yiladigan talablar.....	342
<i>Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li</i>	
Zoologiya darslarida “Qushlar sinfi” mavzusini o'qitishning didaktik tamoyillari va metodik imkoniyatlari....	347
<i>Xaqberdiyeva Shoirra Tursunaliyevna, Norboyeva Naima Begali qizi</i>	
O'quv tayyorlov guruhi gandbolchilarida mashg'ulot yuklamalarini rivojlantirish samaradorligi .....	352
<i>Shermuxeimedova N.N., Saylavova Aida Alisher qizi</i>	
Ikkinchi tartibli differensial tenglamalar uchun lokal chegaraviy masalalar: nazariya va tatbiqlari.....	356
<i>Musurmanova Nilufar Allamurat qizi</i>	
“Boychechak” qo'shig'ida ajdodlar turmush tarzi motivlari.....	360
<i>S. Matchanov, U. F. Xabibullayev</i>	
Фразеологизмы русского языка как зеркало национальной картины мира: лингвокультурологи-ческий анализ и методика преподавания в современной школе .....	365
<i>Мустанов Убайдулло Зулпанович</i>	
Oliy ta'limda udl yondashuvi asosida inklyuziv ta'lim samaradorligini oshirish.....	369
<i>Yunusova Xusnora Shuxrat qizi</i>	

Art-pedagogik vositalar asosida talabalarning kasbiy mobilligini rivojlantirish.....	372
<i>Usmonova Qumriniso Saydaliyevna</i>	
Boshlang'ich ta'limda didaktik o'yinlarning klassifikatsiyasi, pedagogik funksiyalari va raqamli ta'lim muhiti sharoitida integratsiyalashuvi.....	375
<i>Ortiqboeva Zumradxon Xasanboy qizi</i>	
Ta'lim jarayonida gamifikatsiya texnologiyasining qo'llanilishi.....	378
<i>Abdufatayev Sherjaxon Abduazimovich, Yaxshiboyev Temur-Malik Erkin o'g'li</i>	
Interaktiv o'yinlar asosida dasturlashni o'qitish: "Kod bo'lagini top" o'yinining pedagogik samaradorligi.....	381
<i>Xudayberganov Yashin Komilovich, Xonto'rayev Ibroxim Abdikamol o'g'li</i>	
Bo'lajak chet tili o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishning nazariy asoslari.....	385
<i>Temirova Shoxsanam Komilovna</i>	
Kreativ kompetensiyani rivojlantirishda akademik muhit va shaxslararo munosabatlarning psixologik mexanizmlari.....	389
<i>Abdurazzaqov Shuxratbek Zafarjon o'g'li</i>	
Talaba yoshlarda ma'naviy-axloqiy fazilatlarni shakllantirishning pedagogik mexanizmlari.....	392
<i>Fayziyeva Muqaddas Akbar qizi</i>	
STEAM ta'lim texnologiyasining mohiyati va uni boshlang'ich ta'limda qo'llash imkoniyatlari.....	397
<i>Abrorxonova Kamola Abrorxon qizi, Kamoljonova Iroda Niyazjon qizi</i>	
Zamonaviy yoshlar dunyoqarashining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari.....	400
<i>Abdullayeva Nilufar Sadikjanovna</i>	
An'anaviy xonandalik ijrochiligida ovoz tarbiyasining shakl, usul va metodlari.....	403
<i>Abdusalomova Iroda Xabibulloyevna</i>	
Tibbiyot talabalari orasida kasbiy motivatsiyaning psixologik omillari.....	407
<i>Abduxamidov Abbas Muhiddin o'g'li, Rajabov Temurbek Baxtiyor o'g'li, Boboyeva Maxsuda Ataxanovna</i>	
Metakognitiv yondashuv asosida talabalar irodaviy sifatlarini rivojlantirishning kognitiv va psixologik asoslari.....	410
<i>Axatov Yo'ldoshjon Hamzayevich</i>	
A Model for Developing Transversal-Methodological Competencies in Future Educators.....	415
<i>Ergasheva Barno Ziyavitdin kizi</i>	
Historical Development of Project-Based Learning in Language Teaching.....	419
<i>Fayziyeva Ozoda Erkin Kizi</i>	
Axloq shakllanishining psixologik xususiyatlari: shaxs rivojlanishida ichki nazorat va motivatsiya mexanizmlari.....	423
<i>Ibaydayeva Munisa Aybek qizi</i>	
Neyropedagogik texnologiyalar asosida emotsional kompetentlikni rivojlantirishning innovatsion didaktik modeli.....	427
<i>Mirzaraxmonova Shaxnoza Mirzaaxmadovna</i>	
O'zbekistonda maktabgacha ta'limga xorijiy tajribalarni integratsiya qilish: Yaponiya davlati misolida.....	432
<i>Narimanova Saida Narimon qizi</i>	
Ijtimoiy tarmoqlarda yolg'on ma'lumotlar tarqalishining psixologik va ijtimoiy mexanizmlari hamda unga qarshi kurashish muammolari.....	436
<i>Nurmatov A. N.</i>	
Metodik savodxonlikni rivojlantirishning pedagogik va metodologik jihatlari (Biologiya fani misolida).....	439
<i>Rahimova Mahliyo Akramovna</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining yosh xususiyatlari va ularning matematik tafakkurini rivojlantirish imkoniyatlari.....	444
<i>Shabatova Rabig'a Janasbay qizi, Muxitdinova Nodira Mamalatifovna</i>	
Oliy ta'lim muassasalarida talabalar ommaviy sportini rivojlantirishning pedagogik tizimini takomillashtirish konsepsiyasi.....	448
<i>Ummatov Nozim Raimjonovich</i>	
O'quv jarayonida differensial topshiriqlarning o'rni va ularning ahamiyati.....	453
<i>Xoldarova Irodaxon Valijonovna, Xakimova Ma'mura Davlatjon qizi</i>	



Biologiya ta'limida zamonaviy innovatsion texnologiyalarning o'rni .....	457
<i>Xaqberdiyeva Shoira Tursunaliyevna</i>	
Genetika mavzularini o'qitishda tahliliy faoliyatni tashkil etish metodlari, vositalari va shakllari.....	461
<i>Xaqberdiyeva Shoira Tursunaliyevna, Dosov Rustam Alisherovich</i>	
Hayvonlarning xilma- xilligi mazvusini o'qitishda multimedia, 3D format modellari va virtual loyabatoriya asosida o'qitish metodikasi .....	466
<i>Xaqberdiyeva Shoira Tursunaliyevna, Murodullayeva Sarvinoz O'tkirbek qizi</i>	
Tog'ayli baliqlar mavzusini o'qitishning didaktik tamoyillari, pedagogik shart-sharoitlari va metodik yondashuvlari.....	473
<i>Xaqberdiyeva Shoira Tursunaliyevna, Qodirova Nurshoda Olim qizi</i>	
A Comparative Analysis of Lexical Transformations in Abdulla Qahhor's Prose "Tolka" .....	478
<i>Kasimova Nafisa Farhodovna, Safarova Maftuna</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilari tarbiyasida ota-onalar bilan hamkorlikni tashkil etish metodikasi .....	482
<i>Fayziyeva Madinabonu Sohibjon qizi</i>	
Gnosiologik yondashuv asosida mustaqil ta'lim jarayonini loyihalash.....	485
<i>Xidirova Dildora Zayniddinovna</i>	
Nemis tilini o'qitishda sun'iy intellekt asosidagi ta'lim vositalari.....	491
<i>Xudoyberdiyeva Zumrat Xudayberdiyevna</i>	
Kasbiy nutqda til me'yorlariga rioya qilish muammolari.....	495
<i>Yuldasheva Dilnoza Bekmurodovna</i>	
Teatr texnologiyalarini maktabgacha ta'limga integratsiya qilishning pedagogik shartlari.....	498
<i>Abdullayeva Aziza Abdurazzoq qizi, Salimova Dilmira Farxodovna</i>	
Теоретические и практические аспекты развития одарённых студентов .....	502
<i>Байбаева Мухайё Худойбергеновна, Зайниддинова Хилола Абдулвахоб кизи</i>	
Организация проектной деятельности во внеурочной работе по математике при изучении темы "дроби" в начальных классах .....	508
<i>Бахытбаева Шахнозбану Махмуд кызы, Садыкова Альбина Венеровна</i>	
Традиционные методы развития навыка говорения в обучении иностранному языку .....	511
<i>Давронбекова Фарангис Давроновна</i>	
Описание скоростных качеств футболистов .....	517
<i>Мадаминов Орибджан Нишанбаевич</i>	

# TEATR TEXNOLOGIYALARINI MAKTABGACHA TA'LIMG INTEGRATSIYA QILISHNING PEDAGOGIK SHARTLARI

Abdullayeva Aziza Abdurazzoq qizi

Alfraganus universiteti Pedagogika kafedrası 1-kurs magistranti

Salimova Dilmira Farxodovna

Alfraganus universiteti Pedagogika kafedrası dotsenti, PhD

**Annotatsiya:** Ushbu maqola teatr texnologiyalarini maktabgacha ta'lim jarayoniga integratsiya qilishning pedagogik shartlarini nazariy jihatdan tizimlashtirish va asoslashga qaratilgan. Maktabgacha ta'lim davri 3 yoshdan 6 yoshgacha bo'lgan bosqich bolaning intellektual, emotsional va ijtimoiy rivojlanishi uchun hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, xalqaro statistik ma'lumotlar ta'lim qamrovi yetarli darajada ta'minlanmaganligini ko'rsatmoqda, bu esa mazkur muammoning dolzarbligini belgilaydi.

**Kalit so'zlar:** teatr texnologiyalari, maktabgacha ta'lim, pedagogik shartlar, drama asosidagi pedagogika, pedagog kompetensiyasi, ta'lim muhiti, oila–muassasa hamkorligi.

**Abstract:** This article is aimed at theoretically systematizing and substantiating the pedagogical conditions for integrating theatrical technologies into the process of preschool education. The preschool period, covering ages 3 to 6, plays a decisive role in a child's intellectual, emotional, and social development. At the same time, international statistical data indicate that sufficient educational coverage has not yet been fully ensured, which determines the relevance of the problem.

**Key words:** theatrical technologies, preschool education, pedagogical conditions, drama-based pedagogy, teacher competence, educational environment, family-institution cooperation.

**Аннотация:** Данная статья направлена на теоретическую систематизацию и обоснование педагогических условий интеграции театральных технологий в процесс дошкольного образования. Дошкольный возраст (от 3 до 6 лет) играет решающую роль в интеллектуальном, эмоциональном и социальном развитии ребёнка. В то же время международные статистические данные свидетельствуют о том, что достаточный охват образованием всё ещё не обеспечен, что определяет актуальность данной проблемы.

**Ключевые слова:** театральные технологии, дошкольное образование, педагогические условия, драматическая педагогика, педагогическая компетентность, образовательная среда, сотрудничество семьи и учреждения.

## KIRISH

Maktabgacha ta'lim davri 3 yoshdan 6 yoshgacha bo'lgan bosqich bolaning intellektual, emotsional va ijtimoiy rivojlanishidagi eng muhim poydevor hisoblanadi. Ilmiy ma'lumotlarga ko'ra, bola 3 yoshga yetguncha uning miyasining 90 foizi shakllanib bo'ladi. Shu boisdan, ushbu davrda sifatli ta'lim muhitini ta'minlash nafaqat pedagogik, balki ijtimoiy-siyosiy ustuvorlik darajasiga ko'tarilgan. UNESCO va UNICEF tomonidan 2024 yilda nashr etilgan Maktabgacha ta'lim bo'yicha Global hisobotga ko'ra, hozirgi kunda darhol choralar ko'rilmasa, dunyodagi bolalarning 37 foizi 300 milliondan ortiq bola 2030 yilga qadar minimal o'qish savodxonligiga erisha olmaydi (UNESCO & UNICEF, 2024). 2013 yildan 2023 yilgacha bo'lgan o'n yillik davr mobaynida boshlang'ich ta'limga kirishdan bir yil avvalgi maktabgacha ta'limga qamrov darajasi taxminan 75 foiz atrofida qotib qoldi (UNESCO, 2023). Bu raqam maktabgacha ta'lim tizimida sifat va metodologik yangilanish zaruratini alohida kun tartibiga qo'yadi: bolalarni maktabga tayyorlashda faqat akademik bilim berish yetarli emas, balki ularning kommunikativ, ijodiy va emotsional-ijtimoiy qobiliyatlarini bir vaqtda rivojlantiruvchi yondashuv talab etiladi. Aynan mana shu zaruratni qondirish imkoniyatini o'zida mujassam etgan pedagogik yo'nalishlardan biri teatr texnologiyalarini ta'lim jarayoniga integratsiya qilishdir.

Dramatik o'yin Vygotskiy va uning izdoshlari tomonidan ishlab chiqilgan konsepsiyaga ko'ra maktabgacha va kichik maktab yoshidagi bolalar uchun yetakchi faoliyat turi sifatida qaraladi; unda bola boshqa shaxs, hayvon yoki obyekt rolini qabul qilib, narsalarni ramziy ma'noda ishlatadi. Bu nazariy zamin teatr texnologiyalarining pedagog tomonidan yo'naltirilgan holda ta'lim jarayoniga organik kirib borish imkoniyatini ilmiy asoslaydi.



## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Xalqaro ilmiy hamjamiyatda teatr va drama asosidagi pedagogikaning bolalar rivojlanishiga ta'sirini o'rganishga bo'lgan qiziqish so'nggi o'ttiz yil ichida izchil o'sib kelmoqda. Lee va hammuallillar (2015) tomonidan olib borilgan keng ko'lamli metatahlil 30 yillik tadqiqotlarni qamrab oluvchi drama asosidagi pedagogikaning akademik yutuqlar, 21-asr ko'nikmalari, motivatsiya hamda ijrochilik mahoratiga sezilarli ijobiy ta'sir ko'rsatishini tasdiqlab, bu ijobiy ta'sir ayniqsa o'qituvchi bir necha soat davomida izchil dars olib borganda yanada kuchayishini ko'rsatdi (Lee et al., 2015). Mages (2018) o'tkazgan tadqiqot Nyu-York shahridagi Head Start dasturiga jalb etilgan 155 ta bola ishtirokida drama va teatr-ta'lim dasturining bolalar o'rtasida emergent savodxonlik, "aql nazariyasi" (theory of mind) hamda tasavvur rivojlanishiga ta'sirini o'rganib, teatr san'ati dasturlarini sifatli tarzda joriy etish bolalarning akademik tayyorgarligini qo'llab-quvvatlashini ko'rsatdi. Lama va hammuallillar (2023) Nepal maktabgacha muassasalarida o'tkazgan narrativ tadqiqotda rolli o'yinning bolalarning kognitiv, psixomotor va ijtimoiy-emotsional rivojlanishi, hamda tilini takomillashtirishi orqali yaxlit rivojlanishni rag'batlantirishini aniqladi (Lama et al., 2023).

Pedagog kompetentsiyasi masalasida esa Lobman (2005) tomonidan olib borilgan tadqiqot shuni ko'rsatdiki, maktabgacha ta'lim muassasasi o'qituvchilari ko'pincha improvizatsion o'yinni o'z amaliyotiga qanday qo'shishni bilmaydilar bu esa pedagoglar uchun tizimli kasbiy qo'llab-quvvatlash zarurligini anglatadi. Bundan tashqari, kreativ drama modulini o'rganishning pedagoglar tayyorgarligiga ta'sirini ko'rsatuvchi tadqiqotlar pedagoglar drama pedagogikasini qimmatli vosita sifatida qadrlasada, dastlabki ikkilanish ko'pincha rasmiy tayyorgarlik yetishmasligidan kelib chiqishini aniqlagan.

Maqolaning asosiy maqsadi maktabgacha ta'lim muassasalarida teatr texnologiyalarini joriy etish uchun zarur bo'lgan pedagogik shartlar tizimini aniqlash, asoslash va amaliy jihatdan tekshirib ko'rishdir.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu maqola ilmiy-amaliy kontseptual tadqiqot sifatida tuzilgan bo'lib, bevosita empirik ma'lumotlar to'plashga emas, balki mavjud ilmiy adabiyotlarni tizimli tahlil qilish va pedagogik shartlar modelini nazariy jihatdan ishlab chiqishga yo'naltirilgan. Miqdoriy ma'lumotlar statistik tahlil orqali qayta ishlanadi. Sifatli ma'lumotlar tematik kodlash usuli bilan tahlil etiladi. Tadqiqotda ma'lumotlarni uchburchaklash tamoyiliga rioya qilinib, turli manbalardan olingan natijalar o'zaro taqqoslanadi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatdiki, "teatr texnologiyalari" tushunchasi ilmiy manbalarda turlicha talqin etiladi. Bir qator tadqiqotchilar ushbu tushunchani asosan dramatik improvizatsiya va rolli o'yinni o'z ichiga oluvchi keng qamrovli faoliyat sifatida izohlasa, keyingi davr tadqiqotlari (Mages, 2018; Lama et al., 2023) uni muayyan o'quv maqsadlariga yo'naltirilgan tuzilmaviy pedagogik amaliyot sifatida aniqroq chegaralaydi. Ushbu tadqiqotda teatr texnologiyalari quyidagicha ta'riflanadi: ta'lim maqsadlarini amalga oshirish uchun pedagog tomonidan rejalashtirilgan va yo'naltirilgan, dramatisatsiya, qo'g'irchoq o'yini, rolli o'yin va sahna ijrosi elementlarini birlashtiruvchi didaktik faoliyat shakllari majmui.

Teatr texnologiyalarini maktabgacha ta'limga integratsiya qilishni ta'minlovchi to'rtta asosiy pedagogik shart toifasi aniqlandi. Quyida ushbu shartlar adabiyotlardagi ilmiy asoslari bilan birga taqdim etilgan.

**Birinchi shart Pedagog kasbiy kompetentsiyasi.** Lee va hammuallillar (2015) olib borgan keng ko'lamli metatahlil shuni ko'rsatdiki, teatr asosidagi ta'limning samaradorligi bevosita o'qituvchining ushbu sohani qanchalik chuqur o'zlashtirganiga bog'liq: darslarni pedagogning o'zi izchil va kengaytirib olib borganda natijalar sezilarli darajada ortadi. Lobman (2005) esa pedagoglarning improvizatsion o'yinni amaliyotga qo'shishda tizimli tayyorgarlik va metodik ko'rsatmalar mavjud bo'lmaganda ko'pincha ikkilanishini qayd etadi. Shu asosda pedagog kasbiy kompetentsiyasi teatr texnologiyalarining didaktik mohiyatini tushunish, ularni o'quv dasturi maqsadlari bilan bog'lash va faoliyatni bola yoshiga moslashtirish ko'nikmalarini o'z ichiga oladi.

**Ikkinchi shart moslashtirilgan ta'lim muhiti.** Mages (2018) ta'kidlaganidek, maktabgacha ta'lim muassasasida dramatik faoliyat uchun alohida fizik makon va materiallar (rekvizitlar, liboslar, qo'g'irchoqlar) mavjud bo'lishi bolalarning rolli o'yinga mustaqil va ixtiyoriy ravishda kirishishiga muhim shart hisoblanadi. Vygotskiyning rivojlanuvchi muhit konsepsiyasiga ko'ra, bola o'z imkoniyatlarining eng yuqori chegarasida ya'ni yaqin rivojlanish zonasida ishlashi uchun muhit maqsadli tarzda tashkil etilishi lozim. Teatr texnologiyalari uchun bu degani: sinf xonasida rolli o'yin burchagi, ko'rgazmali materiallar va erkin harakat qilishga imkon beruvchi ochiq makonning bo'lishi.

**Uchinchi shart Tizimli metodik ta'minot.** Lama va hammuallillar (2023) Nepal maktabgacha muassasalarida o'tkazgan tadqiqotda stseneriyadan tez-tez chetga chiqishlar va rejalashtirilmagan vaziyatlarni teatr texnologiyalarini joriy etishdagi asosiy qiyinchilik sifatida ko'rsatadi. Bu holat tizimli metodik ta'minotning

bosqichma-bosqich murakkablashib boruvchi faoliyat ketma-ketligi, pedagog uchun ko'rsatmali qo'llanma va yosh xususiyatlariga mos materiallarning zarurligini ko'rsatadi. O'Neill "process drama" konsepsiyasida ham ta'kidlaganidek, samarali integratsiya uchun spontanlik bilan tuzilmaviylik o'rtasida muvozanat saqlanishi kerak.

To'rtinchi shart **oila-muassasa hamkorligi**. UNESCO va UNICEF (2024) ning global hisobotida maktabgacha ta'lim sifatini oshirishda ota-onalarning faol ishtirokini ta'minlash tizimning ajralmas komponenti sifatida alohida ta'kidlangan. Teatr texnologiyalari kontekstida bu shart ayniqsa muhim: bola maktabda o'zlashtirayotgan rolli o'yin va dramatik ifodalash ko'nikmalarini uyda ham davom ettirishi uchun ota-onalarning pedagogik jarayondan xabardor bo'lishi va unga hissa qo'shishi zarur.

1-jadval: **Teatr texnologiyalarini maktabgacha ta'limga integratsiya qilishning pedagogik shartlari, qiyosiy tahlil**

Pedagogik shart	Asosiy mazmuni	Integratsiyaga ta'siri	Darajasi
<b>Pedagog kasbiy kompetentsiyasi</b>	Teatr texnologiyalarini didaktik maqsadlar bilan bog'lash, improvizatsiya va dramatik faoliyatni yo'naltirish ko'nikmasi	To'g'ridan-to'g'ri pedagog mahorati integratsiya sifatini belgilovchi asosiy omil	Zaruriy (shart bo'lmasa jarayon samarasiz)
<b>Moslashtirilgan ta'lim muhiti</b>	Rolli o'yin burchagi, rekvizitlar, liboslar va erkin harakat maydonining mavjudligi	Bilvosita - muhit bolaning mustaqil dramatik faoliyatini rag'batlantiradi	Qo'llab-quvvatlovchi (samaradorlikni kuchaytiradi)
<b>Tizimli metodik ta'minot</b>	Bosqichli faoliyat ketma-ketligi, ko'rsatmali qo'llanma, yosh xususiyatlariga mos materiallar	To'g'ridan-to'g'ri - tuzilmaviy ta'minot stsensariydan chetga chiqishlarni kamaytiradi	Zaruriy (muntazam qo'llanilishi shart)
<b>Oila-muassasa hamkorligi</b>	Ota-onalarning jarayondan xabardorligi, uy muhitida dramatik o'yinni davom ettirish	Bilvosita - oiladagi davomiylilik o'quv ta'sirini mustahkamlaydi	Kuchaytiruvchi (barqaror natija uchun muhim)

Zamonaviy ta'lim paradigmasi faqat bilim uzatishga asoslangan an'anaviy yondashuvdan uzoqlashib, bolaning yaxlit shaxs sifatida shakllanishini markazga qo'yuvchi integrativ modellar sari siljimoqda. Ushbu o'zgarish kontekstida teatr texnologiyalarining maktabgacha ta'lim tizimiga kiritilishi nafaqat metodologik yangilik, balki bolaning kognitiv, emotsional va ijtimoiy qobiliyatlarini bir jarayonda rivojlantirishga yo'naltirilgan kompleks pedagogik strategiya sifatida alohida ahamiyat kasb etadi.

Maqolada taqdim etilgan to'rtta pedagogik shart tizimli model sifatida muhim nazariy hissa qo'shadi. Shunday bo'lsa-da, ushbu shartlarning amaliyotga tatbiq etilishi turli ta'lim tizimlarida bir xil samara bermasligi mumkin. Turli mamlakatlardagi maktabgacha ta'lim muassasalari resurs imkoniyatlari, o'qituvchilarning tayyorgarlik darajasi va oilaning ta'limga munosabati jihatidan sezilarli farq qiladi. Shu boisdan, ushbu model universal qoida sifatida emas, balki mahalliy sharoitga moslashtirilishi zarur bo'lgan yo'naltiruvchi asos sifatida qabul qilinishi lozim.

Pedagog kasbiy kompetentsiyasiga doir shart ayniqsa diqqatni jalb etadi. Xalqaro tajriba ko'rsatishicha, ko'plab o'qituvchilar ijodiy va improvizatsion faoliyatni dars jarayoniga qo'shishdan qochadilar bu holat rasmiy tayyorgarlik tizimidagi bo'shliqdan kelib chiqadi. O'qituvchi nafaqat teatr texnologiyalarini bilishi, balki ularni o'quv maqsadlari bilan bog'lash va bola yoshiga moslashtirish ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak. Bu esa kasbiy tayyorgarlik dasturlarida ijodiy pedagogika modullarini kuchaytirish zarurligini anglatadi.

Ta'lim muhitining moslashtirilishi masalasi ham keng pedagogik muammo doirasida ko'rib chiqilishi lozim. Dramatik faoliyat uchun qulay makon, materiallar va erkin harakat imkoniyati yaratish ko'pgina muassasalar uchun resurs jihatidan qiyin bo'lishi mumkin. Biroq tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, moddiy resurslar yetishmasligi ijodkorlikni to'sib qo'ymaydi aksincha, o'qituvchining pedagogik mahorati va niyati muhit sifatini belgilovchi asosiy omil bo'lib qoladi. Shu ma'noda, jismoniy muhitni takomillashtirish muhim bo'lsa-da, u etarli shart hisoblanmaydi.

Oila-muassasa hamkorligiga doir shart zamonaviy ta'lim ilmida tobora ko'proq e'tirof etilmoqda. Bola maktabda egallagan ko'nikmalarini uy sharoitida ham davom ettirishi uchun ota-onalarning jarayondan xabardor bo'lishi shart. Ayni paytda, bu hamkorlikni amalga oshirish ko'pincha muassasa va oila o'rtasidagi muloqot sifatiga, ota-onalarning vaqt resurslari va ta'lim savodxonligiga bog'liq. Demak, oila-muassasa hamkorligini kuchaytirish uchun bir tomonlama ma'lumot berishdan ko'ra, ota-onalarni faol ishtirokchi sifatida jalb qiladigan mexanizmlar ishlab chiqilishi maqsadga muvofiq.

Tizimli metodik ta'minot masalasida esa nazariy tartiblilik bilan amaliy moslashuvchanlik o'rtasidagi muvozanat markaziy muammo bo'lib qoladi. Teatr texnologiyalari tabiatiga xos bo'lgan spontanlik va ijodkorlik qat'iy tuzilmaviy ko'rsatmalar bilan to'qnashishi mumkin. Maqolada taklif etilgan yondashuv bu ziddiyatni



e'tirof etadi, ammo uni qanday hal qilish masalasi keyingi empirik tadqiqotlar uchun ochiq qolmoqda. Pedagogika amaliyotida tuzilma va erkinlik o'rtasidagi muvozanatni topish ko'pincha muayyan sinfxona kontekstida sinov-xatolik yo'li bilan amalga oshiriladi.

Umuman olganda, ushbu maqolada taqdim etilgan kontseptual model teatr texnologiyalarini maktabgacha ta'limga sistematik ravishda integratsiya qilish yo'lida muhim dasturviy hujjat vazifasini o'taydi. Kelgusida ushbu modelni mahalliy sharoitlarda empirik tekshiruvdan o'tkazish, turli madaniy kontekstlarda qiyosiy tadqiqotlar olib borish va pedagog tayyorgarligining integratsiya natijalariga ta'sirini o'lchash metodologiyalarini ishlab chiqish ilmiy jihatdan ahamiyatli yo'nalishlarni tashkil etadi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Aniqlangan pedagogik shartlar o'rtasida ierarxik aloqadorlik mavjud: pedagog kompetensiyasi va metodik ta'minot zaruriy poydevor bo'lib, ular mavjud bo'lmasa integratsiya jarayoni samaradorligini ta'minlab bo'lmaydi. Ta'lim muhiti va oila hamkorligi esa bu poydevorni mustahkamlovchi va natijalarni barqarorlashtiruvchi omillar sifatida ishlaydi. Ushbu shartlarning birgalikdagi ta'siri alohida-alohida ta'siridan sezilarli darajada kuchliroq bo'lishi kutiladi. Maqolaning yana bir muhim xulosasi shundaki, teatr texnologiyalari bolaning faqat ijodiy qobiliyatlarini emas, balki kognitiv, lingvistik va ijtimoiy-emotsional rivojlanishining barcha qirralarini bir vaqtda rag'batlantirishga qodir. Bu esa ushbu texnologiyalarni maktabgacha ta'lim dasturlarining ajralmas qismi sifatida qarash uchun yetarli ilmiy zamin mavjudligini ko'rsatadi. Shu bilan birga, taqdim etilgan kontseptual model uchta asosiy cheklovga ega:

- *birinchidan*, u bevosita empirik tekshiruvdan o'tmagan nazariy konstrukt bo'lib qolmoqda;
- *ikkinchidan*, O'zbekiston va O'rta Osiyo mintaqasiga doir mahalliy tadqiqotlar kamchiligi modelning min-taqaviy qo'llanilishiga shubha uyg'otishi mumkin;
- *uchinchidan*, shartlarning amalga oshirilishi uchun zarur bo'lgan vaqt, moliyaviy va kadrlar resurslari aniqlanmagan.

Kelgusidagi tadqiqotlar uchun quyidagi yo'nalishlar tavsiya etiladi:

- modelni mahalliy maktabgacha ta'lim muassasalarida amaliy sinash va natijalarni miqdoriy hamda sifatiiy usullar bilan o'lchash;
- pedagog tayyorgarligining integratsiya samarasiga ta'sirini longitudinal tadqiqot orqali aniqlash;
- oila-muassasa hamkorligini faollashtirishning yangi mexanizmlarini ishlab chiqish va eksperimental tekshirish;
- shuningdek, ta'lim muhitining minimal zaruriy parametrlarini resurs jihatidan cheklangan sharoitlar uchun belgilab berish.

Xulosa o'rnida ta'kidlash joizki, teatr texnologiyalarini maktabgacha ta'limga integratsiya qilish bu nafaqat dastur boyitish masalasi, balki bolaning kelajakdagi muvaffaqiyati uchun zarur bo'lgan fundamental qobiliyatlarini erta yoshdan shakllantirish strategiyasidir. Ushbu strategiyaning samarali amalga oshirilishi esa pedagog, muassasa, oila va siyosat ishlab chiqaruvchilarning mushtarak va maqsadga yo'naltirilgan hamkorligini talab etadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Creswell, J. W. (2014). *Research design: Qualitative, quantitative, and mixed methods approaches* (4th ed.). SAGE Publications.
2. Jaakkola, E. (2020). Designing conceptual articles: Four approaches. *AMS Review*, 10(1-2), 18-26. <https://doi.org/10.1007/s13162-020-00161-0>
3. Lama, D., Sharma, P., & Thapa, B. (2023). Drama-based pedagogy for preschoolers: A narrative inquiry in Nepal. *Journal of Comparative Education Studies*, 18(2), 44-61.
4. Lee, B. K., Patall, E. A., Cawthon, S. W., & Steingut, R. R. (2015). The effect of drama-based pedagogy on K-12 literacy-related outcomes: A meta-analysis of research from 1985 to 2012. *Review of Educational Research*, 85(1), 3-49. <https://doi.org/10.3102/0034654314540477>
5. Lobman, C. (2005). Improvisation: An analytic tool for examining teacher-child interactions in the early childhood classroom. *Early Childhood Education Journal*, 33(3), 171-176. <https://doi.org/10.1007/s10643-005-0047-y>
6. Mages, W. K. (2018). Does theatre-in-education promote early childhood development? The effects of drama curricula on social, emotional, and language skills in early childhood. *Early Childhood Education Journal*, 46(2), 203-216. <https://doi.org/10.1007/s10643-017-0852-z>
7. Thomas, J., & Harden, A. (2008). Methods for the thematic synthesis of qualitative research in systematic reviews. *BMC Medical Research Methodology*, 8(1), 45. <https://doi.org/10.1186/1471-2288-8-45>
8. UNESCO. (2023). *Global education monitoring report 2023/2024: Technology in education - A tool on whose terms?* UNESCO Publishing.
9. UNESCO & UNICEF. (2024). *Global report on early childhood care and education: The right to a strong foundation*. UNESCO Publishing.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
  - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
  - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
  - 13.00.03 Maxsus pedagogika
  - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
  - 13.00.07 Ta'limda menejment
  - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
  - 07.00.00 Tarix fanlari
  - 19.00.00 Psixologiya fanlari
  - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
  - 02.00.00 Kimyo fanlari
  - 03.00.00 Biologiya fanlari
  - 09.00.00 Falsafa fanlari
  - 10.00.00 Filologiya fanlari
  - 11.00.00 Geografiya fanlari



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

**Mas'ul muharrir:** Ramzidin Ashurov

**Ingliz tili muharriri:** Murod Xoliyorov

**Musahhih:** Alibek Zokirov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2026. №4(1)**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: № 136361.**

**Manzirimiz:** Toshkent shahar, Yunusobod tumani  
19-mavze, 17-uy.